

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251960>

## “JINOYAT VA JAZO” ASARIDA QAHRAMON RUHIYATI

**Karamatova Parvina**

**Ismoilova Shahlo**

**ANNOTATSIYA:** ushbu maqolada buyuk yozuvchi Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy asarlarida qahramonlarning ichki kechinmalari, obrazlarning ruhiy holatlari siyratini aks ettirishdagi o‘ziga xosliklar, qahramonlarning ijtimoiy hamda ruhiy holat talqinlari, o‘zaro qarama-qarshi xarakterlar tasviri keltirilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** jinoyat, jazo, vijdon azobi, Albert Kamyu, kambag‘allik, sudxo‘r, “Yevgeniy Onegin”.

Nafaqat rus xalqining, balki butun dunyo tan olgan o‘tkir nafasi, jonkuyar, mahoratli yozuvchisi Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy Moskvada 1821-yilda tavallud topgan. Ijodiy faoliyati 1844-yilda boshlangan. Birinchi romani - “Bechora odamlar” asarida xo‘rlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor bo‘lgan “kichkina odamlar” ning qismati hikoya qilingan. “Qiyofadosh”, “Oq tunlar” qissalari ham ijtimoiy mavzuda yozilgan. “Jinoyat va jazo”, “Telba” romanlari esa rus xalqining ma’naviy muammolari badiiy bo‘yoqlarda yaqqol aks ettirilgan. “Jinoyat va jazo” — 1865—1866-yillarda Fyodor Dostoyevskiy tomonidan yozilgan ijtimoiy-psixologik roman hisoblanadi. Dastlab, asar 1866-yilda “Russkiy vestnik” jurnalida nashr etilgan. Bir yil o‘tgach, alohida nashrda chop etilib, jurnal tarkibi bilan taqqoslaganda uning tuzilishi biroz o‘zgartirildi. Romanda sobiq talaba Rodion Romanovich Raskolnikov tomonidan sodir etilgan jinoyat va uning oqibatlari haqida hikoya qilinadi. Albert Kamyu o‘zini Fyodor Dostoyevskiyning shogirdi deb

hisoblagan va uning kitoblari “biz bilgan, lekin tan olishdan bosh tortadigan narsalarni o‘rgatadi” degan edi.

Asarning bosh qahramoni Raskolnikov – sobiq talabalardan biri. Uning moliyaviy ahvoli yaxshi emas, ijara pulini to‘lamay qo‘yganiga necha zamonlar bo‘lib ketgan, uydan haydali sh arafasida edi. Kambag‘alligi tufayli o‘qishini davom ettirmaydi. Uning qishloqda onasi, bir singlisi kambag‘allikda hayot kechiradi. Kunlardan bir kun u onasidan bir xat oladi. Xatda singlisi Lujin ismli o‘ziga to‘q aslzodaga turmushga chiqayotgani hamda singlisi va onasi Sankt-Peterburgga ko‘chib kelishayotgani yozilgandi. Qolaversa, bo‘lajak kuyovi Lujinning singlisiga azbaroyi sevgi yuzasidanmas, balki Dunyaning kambag‘alligidan foydalanib, o‘ziga qaram qilish maqsadida uylanayotgani uning yuragini battar ezar, g‘ururini toptardi. Ushbu jarayonni “Yevgeniy Onegin” asariga qiyoslashimiz mumkin.

Muallif ushbu asarda: “Kambag‘allik ayb emas, biroq yo‘qchilik bu – illat. Siz kambag‘alchilikda hali o‘zingizning tug‘ma olijanob fazilatlarinigizni saqlab qolgan bo‘lasiz, yo‘qchilikda esa ularni hech qachon va hech kim saqlab qola bilmaydi.”,- deya shoh satrlarni keltirib o‘tadi. Chorasizlik azobidan qiynalgan qahramon buyumlarini garovga qo‘yib yuradigan sudxo‘r kampirni o‘ldirishni reja qiladi. Maqsadi kampirni o‘ldirib, pullarini o‘g‘irlagach, barcha muammolarini hal qilishni o‘ylaydi. Raskolnikov rejasini amalga oshirish mobaynida kampirning singlisi Lizovetta uyga kelib qoladi. Sarosimada qolgan qotil uning singlisini ham bolta bilan urib o‘ldirishga majbur bo‘ladi. Inson qilgan jinoyati uchun jazo olmay qolmaydi. Har qanday jinoyatning esa ,albatta, javobi bor. Jazoning qay shaklda berilishi jinoyatning katta-kichikligiga qarab beriladi. Ko‘pchilik insonlar eng og‘ir jazo bu – vijdon azobi deya keltirishadi. Qamoq jazosidan, jarimalardan qutulib ketish mumkin, ammo inson o‘z qalbi bilan, vijdoni bilan kurashib qutulib ketolmaydi. Dostoyevskiyning ushbu romanida xuddi shu masalalar yoritib berilgan. Raskolnikov haqida gapiradigan bo‘lsak, uning qilgan jinoyatiga hech kim guvoh bo‘lmagan bo‘lsa-da, u jamiyatdan, yaqinlaridan ajralib qoladi. Vijdon azobi uni hecham tinch qo‘ymaydi. Uzoq yo‘ldan kelgan onasini ham, jigari bo‘lgan singlisini ham ko‘rishni xohlamaydi. Bir necha bor

o‘zini militsiyaga topshirmoqchi ham bo‘ladi, lekin Raskolnikov kampirni o‘ldirganiga zarracha achinmasdi, bir xasharotni o‘ldirdim deb hisoblardi. Qurbonini shundoq ham azoblanib, yo‘qchilikdan tinkasi qurib borayotgan kambag‘allarning qonini so‘rib yurgan zararkunanda sanardi. Asarda Raskolnikovdan tashqari Marmeladov, Sonya singari qahramonlar hayoti ham achchiq bo‘yoqlarda berilgan. Raskolnikov arzon qovoqxonada ishdan haydalgan Marmeladov bilan tanishib qoladi. Marmeladov kasalligi, qashshoqligi hamda piyonistaligi bois pul topish maqsadida qizi Sonyani ishratxonaga yuborishga majbur bo‘ladi. Raskolnikov Marmeladov vafot etgandan so‘ng, Sonya bilan yaqindan tanishadi. U hamma sirlarini, gaplarini faqatgina Sonyaga ishonib aytardi. Sonya yigitga politsiyaga borib, aybiga iqrор bo‘lishini, jazo o‘tab, yengil tortishini maslahat beradi. Raskolnikov o‘zi bilan vijdoni bilan olishib yura-yura baribir aybiga iqrор bo‘lib, mahkamaga boradi. Sud nihoyasiga ko‘ra u katorgaga surgun qilinadi. Muddati tugagach qanday hayot kechirishi mumkinligi to‘g‘risida shirin xayollar suradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, “Jinoyat va jazo” asari o‘qilishi og‘ir, ammo hushyorlik va ziyraklik talab qiladigan asar. Roman mohir tarjimon Ibrohim G‘ofurov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Dostoyevskiy ushbu romani orqali qahramonlar psixologiyasini kitobxonlarga ko‘rsatib berolgan. O‘quvchi mutolaa davomida har bir qahramon bilan tengma-teng fikrlaydi. Jinoyat va jazoning asl mohiyati axloq bilan bog‘liq. qon to‘kish, kimningdir hayotiga zomin bo‘lish baribir yaxshilikka olib bormaydi. Har qanday jinoyatning jazosi beriladi. Undan qochishning iloji yo‘q. Eng muhimi, qalbda hamisha mehr-muhabbat, atrofdagilarga adolat kabi iliq tuyg‘ularni saqlab qolishimiz lozim. "Jinoyat va jazo" asari orqali Dostoevsky insoniyatni o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikka chaqiradi va har birimizning ichki jangimizni ko‘rsatadi. U shuni ta’kidlaydi: haqiqiy adolat va tinchlik faqat o‘zligimizni anglaganimizda, gunohlarimizni tushunganimizda va ularni qabul qilganimizda keladi. Bu asar, nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Insonning axloqiy jihatlari va ichki kurashi har doim zamon bilan birga keladi, shuning uchun "Jinoyat va jazo" asari har bir avlod uchun muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Dostoevsky, F. (1866). Jinoyat va jazo (Crime and Punishment). [Original publication].
2. Frank, J. (1995). Dostoevsky: The Miraculous Years, 1865-1871. Princeton University Press.
3. Mirsobit Abdullayev "Adabiyot nazariyasi va rus klassikasi"
4. G'. Xolmirzayev "Adabiyot va til madaniyati "